Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda inson kapitali kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinmoqda. World Bank inson kapitalini inson hayoti davomida shakllanadigan bilim, ko'nikma, sog'liq va boshqa xususiyatlar majmui sifatida baholaydi hamda uning uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va mehnat unumdorligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi [9]. Jahon bankining Human Capital Project tashabbusi mamlakatlarda inson kapitalini o'lchash, ta'lim va sog'liqni saqlash natijalarini yaxshilash hamda mavjud inson salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan.

Inson kapitalini baholashda World Bank tomonidan ishlab chiqilgan Human Capital Index ham muhim metodologik vosita hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich inson salomatligi va ta'lim natijalarining kelajakdagi mehnat unumdorligiga ta'sirini baholash imkonini beradi. Shu jihatdan, inson kapitalini boshqarishda faqat xodimlar sonini emas, balki ularning sifat ko'rsatkichlarini ham baholash zarurligi namoyon bo'ladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda inson kapitalining tarkibiga raqamli kompetensiyalarni kiritish masalasi ham muhim ilmiy yo'nalishga aylandi. OECD tadqiqotlarida raqamlashtirish va yangi texnologiyalar mehnat bozorida talab qilinadigan ko'nikmalar tarkibini o'zgartirayotgani, ayniqsa, raqamli va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. OECDning O'zbekiston bo'yicha tadqiqotida ham xususiy sektorning raqamli transformatsiyasini yanada jadallashtirishda raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish muhim omillardan biri sifatida ko'rsatilgan [10].

Mazkur holat inson kapitalini boshqarishda an'anaviy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda, raqamli savodxonlik, ma'lumotlar bilan ishlash, texnologik vositalardan foydalanish, kreativ fikrlash va moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotda texnologiyalarning tez yangilanishi xodimlardan mavjud bilimlarini muntazam yangilab borishni talab etmoqda.

Shuningdek, inson kapitalini boshqarish bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda inson kapitalini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonlari o'zaro bog'liq holda ko'rilmog'da. Xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonining samaradorligi, ularni o'qitish va malakasini oshirish, motivatsiya qilish, faoliyatini baholash va tashkilotda saqlab qolish siyosati inson kapitalini boshqarishning yagona tizimini shakllantiradi. Shu sababli zamonaviy tashkilotlarda inson kapitalini boshqarish oddiy kadrlar funksiyasidan strategik boshqaruv mexanizmiga aylanmoqda.

Bugungi ilmiy adabiyotlarda inson kapitalining yana bir muhim jihati — uning innovatsion salohiyat bilan bog'liqligidir. Bilimli va malakali xodimlar yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish hamda boshqaruv qarorlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar tashkilotning innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda.

Inson kapitalining tarkibiy qismlarini baholashda ta'lim darajasi, kasbiy malaka va ish tajribasi bilan bir qatorda, sog'liq, raqamli kompetensiyalar, ijtimoiy ko'nikmalar va innovatsion qobiliyatlarni hisobga olish tobora muhimlashmoqda. Bunda inson kapitalini boshqarishning samaradorligi xodimlarning mavjud salohiyatidan qanchalik samarali foydalanilayotganligi bilan ham belgilanadi. Mazkur masala, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson kapitali nazariyasi klassik davrda asosan ta'lim, malaka va mehnat unumdorligi bilan bog'langan bo'lsa, zamonaviy bosqichda uning tarkibiga sog'liq, innovatsion faoliyat, raqamli kompetensiyalar, kreativlik, ijtimoiy ko'nikmalar va uzluksiz ta'lim kabi omillar ham kiritilmoqda. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning sezilarli qismi inson kapitalining alohida tarkibiy qismlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularni tashkilot darajasida yagona boshqaruv va baholash tizimiga integratsiya qilish yo'nalishidagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda inson kapitalini boshqarishning ilmiy-nazariy yondashuvlarini tizimlashtirish bilan bir qatorda, uning tarkibiy qismlarini kompleks baholash, rivojlantirish va tashkilotning strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan uslubiy yondashuvni shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot inson kapitalini boshqarishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda tizimli, qiyosiy va mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini inson kapitali nazariyasi, strategik inson resurslarini boshqarish va resurslarga asoslangan yondashuv tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida A. Smith, T. Schultz, G. Becker, J. Mincer kabi olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek, World Bank, OECD va ILOning inson kapitaliga oid zamonaviy tadqiqotlari tahlil qilindi. Inson kapitalini baholashda ta'lim, malaka, mehnat tajribasi, mehnat unumdorligi, raqamli kompetensiyalar va innovatsion salohiyat kabi indikatorlardan foydalanish taklif etildi.

Tadqiqotda inson kapitalining integral ko'rsatkichini aniqlash uchun $IHK = \sum(W_i \times X_i)$ modeli qo'llanildi. Bu yerda IHK — inson kapitalining integral ko'rsatkichi, W_i — indikatorning og'irlik koeffitsiyenti, X_i — indikatorning standartlashtirilgan qiymatini ifodalaydi. Mazkur metod inson kapitalining alohida tarkibiy qismlarini kompleks baholash va uni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari inson kapitalini boshqarish zamonaviy tashkilotlarda faqat xodimlarni ishga qabul qilish, joylashtirish va mehnat faoliyatini nazorat qilish bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Inson kapitalini boshqarish jarayoni xodimlarning bilim va kompetensiyalarini aniqlash, ularni rivojlantirish, tashkilot strategiyasi bilan uyg'unlashtirish, mehnat natijalarini baholash va mavjud salohiyatdan samarali foydalanishni o'z ichiga oluvchi uzluksiz boshqaruv tizimi sifatida shakllanishi lozim.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli transformatsiya inson kapitalining mazmunini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. OECD tomonidan O'zbekiston xususiy sektori bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda raqamli ko'nikmalarni yanada rivojlantirish korxonalarning raqamli transformatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qayd etilgan [11]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish nafaqat texnik vositalarga, balki xodimlarning ulardan foydalanish, yangi jarayonlarga moslashish va bilimlarini yangilash qobiliyatiga ham bog'liq.

Mazkur holat inson kapitalini boshqarishda kompetensiyalar tarkibini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Ilgari xodimning kasbiy bilimi va ish tajribasi asosiy mezon sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi sharoitda raqamli savodxonlik, analitik fikrlash, ijodkorlik, moslashuvchanlik, jamoada ishlash va uzluksiz o'rganish qobiliyati ham muhim omillarga aylanmoqda. World Economic Forumning 2025-yilgi tadqiqotiga ko'ra, 2030-yilgacha mavjud asosiy ko'nikmalarning o'rtacha 39 foizi o'zgarishi yoki yangilanishi kutilmoqda. Tashkilotlar uchun analitik fikrlash eng muhim asosiy ko'nikma bo'lib qolmoqda, texnologik savodxonlik, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar bilan ishlash, kreativ fikrlash, moslashuvchanlik va uzluksiz ta'lim esa tobora muhimlashmoqda [12].

Shundan kelib chiqib, tadqiqotda inson kapitalini boshqarish samaradorligini uchta o'zaro bog'liq yo'nalish — shakllantirish, rivojlantirish va foydalanish orqali baholash maqsadga muvofiq deb topildi. Shakllantirish bosqichida ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va ishga qabul qilish sifati muhim bo'lsa, rivojlantirish bosqichida malaka oshirish, qayta tayyorlash va kompetensiyalarni yangilash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Foydalanish bosqichida esa xodim salohiyatining mehnat unumdorligi, innovatsion faollik va tashkilot natijalariga ta'siri baholanadi (1-jadval).

1-jadval

Inson kapitalini boshqarishning asosiy yo'nalishlari¹

Yo'nalish	Asosiy mazmun	Baholash ko'rsatkichlari	Kutiladigan natija
Shakllantirish	Xodimlarni tanlash va zarur kompetensiyalarni aniqlash	Ta'lim darajasi, malaka, ishga qabul qilish sifati	Zarur kompetensiyaga ega kadrlar
Rivojlantirish	O'qitish, malaka oshirish va qayta tayyorlash	Treninglar soni, ta'lim xarajatlari, kompetensiyalar o'sishi	Xodim salohiyatining oshishi
Foydalanish	Bilim va ko'nikmalardan samarali foydalanish	Mehnat unumdorligi, ish sifati, innovatsiyalar	Yuqori iqtisodiy samaradorlik
Motivatsiya	Moddiy va nomoddiy rag'batlantirish	Ish haqi, mukofot, karyera imkoniyati, qoniqish	Xodimlarning faolligi
Saqlab qolish	Malakali xodimlarni tashkilotda ushlab qolish	Xodimlar almashinuvi, retention darajasi	Inson kapitalining barqarorligi
Raqamlashtirish	Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish	IT ko'nikmalari, raqamli vositalardan foydalanish	Texnologik moslashuvchanlik

1 Muallif ishlanmasi



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlarning iqtisodiy samarasi bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo'ladi. Bevosita samara xodimning mehnat unumdorligi va ish sifatining oshishi orqali yuzaga kelsa, bilvosita samara xodimlar almashinuvining kamayishi, innovatsion faollikning ortishi, tashkiliy bilimlarning saqlanib qolishi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishida namoyon bo'ladi.

OECD ma'lumotlari ham bu xulosani qo'llab-quvvatlaydi: O'zbekistonda xususiy sektorning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish korxonalar mahsuldorligi va raqamli transformatsiyasini jadallashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatilgan. OECD korxonalarda raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, ehtiyojlarni muntazam baholash va xodimlarni qayta tayyorlash mexanizmlarini kuchaytirishni tavsiya qiladi [11].

Shu asosda tadqiqotda inson kapitalini boshqarish samaradorligini baholash uchun quyidagi tarkibiy indikatorlar tizimi taklif etildi (2-jadval).

2-jadval
Inson kapitalini baholashning taklif etilayotgan indikatorlar tizimi²

No	Indikator	Belgilanishi	Mazmuni	Og'irlik, %
1	Ta'lim darajasi	X_1	Xodimlarning ta'lim va kasbiy tayyorgarlik darajasi	15
2	Kasbiy malaka	X_2	Lavozimga mos professional kompetensiyalar	15
3	Mehnat tajribasi	X_3	Amaliy tajriba va kasbiy staj	10
4	Mehnat unumdorligi	X_4	Xodim mehnatidan olinayotgan iqtisodiy natija	20
5	Raqamli kompetensiya	X_5	Raqamli texnologiyalar va dasturlardan foydalanish qobiliyati	15
6	Innovatsion salohiyat	X_6	Yangi g'oya va texnologiyalarni yaratish yoki joriy etish	10
7	Rivojlantirish investitsiyasi	X_7	Xodimlarni o'qitish va rivojlantirishga sarflanadigan mablag'	10
8	Xodimlar barqarorligi	X_8	Malakali xodimlarni tashkilotda saqlab qolish darajasi	5
	Jami			100

Jadvaldagi og'irlik koeffitsiyentlari mualliflik uslubiy taklifi bo'lib, amaliy tadqiqotda ekspert baholash, korxona statistikasi yoki boshqa matematik-statistik usullar asosida moslashtirilishi mumkin. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, inson kapitalini faqat xodimlar soni yoki ta'lim darajasi orqali emas, balki uning tashkilot uchun yaratadigan iqtisodiy va innovatsion qiymati bilan birgalikda baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda inson kapitalining integral ko'rsatkichini hisoblash uchun quyidagi model taklif qilindi:

$$IHK = 0,15X_1 + 0,15X_2 + 0,10X_3 + 0,20X_4 + 0,15X_5 + 0,10X_6 + 0,10X_7 + 0,05X_8$$

bu yerda:

IHK — inson kapitalining integral ko'rsatkichi;

X_1 – X_8 — standartlashtirilgan indikatorlar;

0,05–0,20 — tegishli indikatorlarning og'irlik koeffitsiyentlari.

Mazkur model orqali korxonaning inson kapitalini shartli ravishda uch darajaga ajratish mumkin (3-jadval).

3-jadval
Inson kapitalining integral ko'rsatkichini talqin qilish³

IHK qiymati	Daraja	Tavsif	Boshqaruv chorasi
0,00–0,39	Past	Inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud	Malaka oshirish va qayta tayyorlashni kuchaytirish
0,40–0,69	O'rta	Inson kapitalining ayrim tarkibiy qismlari yetarli darajada shakllangan	Rivojlantirish talab etiladigan indikatorlarni takomillashtirish
0,70–1,00	Yuqori	Inson kapitalidan foydalanish samaradorligi yuqori	Rivojlanish va innovatsiyalarni kengaytirish

Mazkur natijalar inson kapitalini baholashda yagona ko'rsatkichdan foydalanish bilan bir qatorda, kompleks yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Masalan, xodimlarning ta'lim darajasi yuqori bo'lishi

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi



mumkin, biroq raqamli kompetensiya yoki innovatsion salohiyatni yanada rivojlantirish umumiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shu sababli integral yondashuv turli komponentlarning o'zaro ta'sirini hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi inson kapitali va texnologik transformatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat. Zamonaviy mehnat bozorida texnologik ko'nikmalar bilan bir qatorda insoniy, ya'ni avtomatlashtirish murakkab bo'lgan kompetensiyalarning ahamiyati ham ortmoqda. World Economic Forum ma'lumotlariga ko'ra, 2025–2030-yillar davrida AI va katta ma'lumotlar, tarmoqlar va kiberxavfsizlik, texnologik savodxonlik bilan birga kreativ fikrlash, chidamlilik, moslashuvchanlik va chaqqonlik kabi ko'nikmalar ham eng tez rivojlanadigan kompetensiyalar qatoriga kiradi [12].

Demak, inson kapitalini boshqarishning samarali modeli "hard skills" va "soft skills"ni birgalikda rivojlantirishga asoslanishi lozim. Texnik bilimlarni insoniy va ijtimoiy kompetensiyalar bilan uyg'un rivojlantirish xodimning o'zgaruvchan tashkiliy muhitga moslashuvchanligini yanada oshiradi. Texnologik kompetensiyalarni analitik fikrlash, muloqot, liderlik va uzluksiz o'rganish qobiliyati bilan uyg'unlashtirish inson kapitalining barqarorligini oshiradi (4-jadval).

4-jadval

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining ustuvor kompetensiyalari⁴

Kompetensiya guruhi	Asosiy kompetensiyalar	Strategik ahamiyati
Analitik	Tahlil, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish	Boshqaruv sifatini oshiradi
Raqamli	Texnologik savodxonlik, AI, ma'lumotlar bilan ishlash	Raqamli transformatsiyani tezlashtiradi
Ijtimoiy	Muloqot, hamkorlik, liderlik	Jamoaviy samaradorlikni oshiradi
Innovatsion	Kreativlik, yangi g'oya yaratish	Innovatsion raqobatbardoshlikni ta'minlaydi
Moslashuvchan	Resilience, flexibility, agility	O'zgaruvchan muhitga moslashishni ta'minlaydi
Rivojlanish	Lifelong learning, curiosity	Kompetensiyalarning muntazam yangilanib borishini ta'minlaydi

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, inson kapitalining zamonaviy tarkibi texnologik va ijtimoiy kompetensiyalar kombinatsiyasiga asoslanmoqda. Bu xulosa global mehnat bozori tendensiyalari bilan ham mos keladi. 2025-yilgi *Future of Jobs Report* ma'lumotlariga ko'ra, ish beruvchilarning 63 foizi malaka masalasini biznes transformatsiyasining muhim yo'nalishlaridan biri deb hisoblaydi, 85 foizi esa ishchi kuchining malakasini oshirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan [12].

O'zbekiston uchun mazkur natija ayniqsa muhimdir. OECDning O'zbekiston bo'yicha tadqiqotida davlat siyosati doirasida xususiy sektorning raqamli ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojini muntazam aniqlash, mavjud ko'nikmalarni baholash va korxonalarni xodimlarni qayta tayyorlashga rag'batlantirish zarurligi ko'rsatilgan [11].

Shu asosda O'zbekiston korxonalarida inson kapitalini boshqarishning quyidagi mexanizmini taklif etish mumkin:

Inson kapitalini aniqlash → Kompetensiyalarni baholash → Rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash → O'qitish va qayta tayyorlash → Motivatsiya → Mehnat natijasini baholash → Monitoring → Takomillashtirish.

Umuman olganda, muhokama natijalari inson kapitalini boshqarish bo'yicha uchta asosiy xulosani shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, inson kapitalining qiymati faqat ta'lim va mehnat tajribasi bilan emas, balki raqamli va innovatsion kompetensiyalar bilan ham belgilanadi. Ikkinchidan, inson kapitaliga investitsiyalarning samaradorligi xodimlarning individual natijalari bilan bir qatorda, korxonaning umumiy mehnat unumdorligi va raqobatbardoshligi orqali baholanishi kerak. Uchinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida uzluksiz o'qitish, reskilling va upskilling jarayonlarini inson kapitalini boshqarish strategiyasining doimiy elementi sifatida shakllantirish zarur.

Shunday qilib, tadqiqotda taklif etilgan integral baholash modeli va boshqaruv mexanizmi korxonalarda inson kapitalining holatini kompleks tahlil qilish, rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda xodimlarga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida inson kapitali korxona va tashkilotlarning barqaror rivojlanishi, mehnat unumdorligining oshishi hamda raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik resurslardan biridir. Inson kapitalining mazmuni an'anaviy ravishda ta'lim, kasbiy malaka va mehnat tajribasi bilan izohlangan bo'lsa, hozirgi bosqichda uning tarkibiga raqamli kompetensiyalar, innovatsion salohiyat, kreativ fikrlash, ijtimoiy ko'nikmalar, moslashuvchanlik va uzluksiz ta'lim olish qobiliyati ham kiradi.

Tadqiqot davomida inson kapitalini boshqarish oddiy kadrlar boshqaruvi bilan cheklanmasligi, balki xodimlarni tanlash, ularning kompetensiyalarini baholash, rivojlantirish, motivatsiya qilish, mehnat natijalarini monitoring qilish va tashkilotda saqlab qolish jarayonlarini o'zaro bog'lovchi strategik tizim ekanligi aniqlandi. Bunday yondashuv xodimlarning individual salohiyatini korxonaning uzoq muddatli strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, inson kapitalining samaradorligini faqat xodimlar soni, ma'lumot darajasi yoki mehnat staji orqali baholash bilan bir qatorda, boshqa muhim sifat ko'rsatkichlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Inson kapitalini kompleks baholashda mehnat unumdorligi, raqamli kompetensiyalar, innovatsion faollik, xodimlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar va malakali kadrlarni saqlab qolish darajasi kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur. Shu sababli tadqiqotda inson kapitalining integral ko'rsatkichidan foydalanishga asoslangan uslubiy yondashuv taklif etildi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi inson kapitalini boshqarish mazmuniga ham yangi talablarni qo'yimoqda. Texnologiyalarning tez yangilanishi natijasida ayrim kasbiy ko'nikmalarni muntazam yangilab borishga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Shu bois xodimlarni qayta tayyorlash, ularning malakasini muntazam oshirish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish korxonalarning inson kapitalini boshqarish siyosatining doimiy yo'nalishiga aylanishi lozim.

O'zbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri ta'lim tizimi, ish beruvchilar va mehnat bozori o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashdir. Ta'lim jarayonida shakllantirilayotgan bilim va ko'nikmalarning real iqtisodiyot ehtiyojlariga mosligini oshirish, amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish mehnat bozori bilan ta'lim tizimi o'rtasidagi uyg'unlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, korxonalarda inson kapitalini boshqarishning yagona strategiyasini ishlab chiqish va uni umumiy rivojlanish strategiyasi bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Bunda xodimlarning mavjud kompetensiyalari va korxonaning kelajakdagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoji muntazam taqqoslab borilishi kerak.

Ikkinchidan, inson kapitalini baholashning kompleks indikatorlar tizimini joriy etish zarur. Ushbu tizim ta'lim darajasi, kasbiy malaka, mehnat tajribasi, mehnat unumdorligi, raqamli kompetensiya, innovatsion salohiyat va xodimlar barqarorligi kabi ko'rsatkichlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish lozim. Ayniqsa, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, raqamli platformalar va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratish kerak.

To'rtinchidan, xodimlarning rivojlanishini mehnat natijalari bilan bog'lovchi motivatsiya tizimini takomillashtirish zarur. Moddiy rag'batlantirish bilan bir qatorda, martaba o'sishi, kasbiy rivojlanish, malaka oshirish va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash kabi nomoddiy motivatsiya vositalaridan ham samarali foydalanish lozim.

Beshinchidan, korxonalarda HR-analitika vositalarini keng joriy etish maqsadga muvofiq. Xodimlar almashinuvi, mehnat unumdorligi, o'qitish natijalari, kompetensiyalar va motivatsiya ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilish boshqaruv qarorlarining aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Oltinchidan, inson kapitaliga yo'naltirilgan xarajatlarni oddiy joriy xarajat sifatida emas, balki uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida baholash mexanizmlarini takomillashtirish kerak. Bunda xodimlarni rivojlantirishga sarflangan mablag'larning mehnat unumdorligi, innovatsion natijalar va iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini aniqlash muhimdir.

Yettinchidan, O'zbekiston korxonalarida raqamli va insoniy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirishga asoslangan modelni shakllantirish lozim. Texnologik bilimlar analitik fikrlash, kreativlik, kommunikativ qobiliyat, liderlik va moslashuvchanlik bilan uyg'unlashganda, inson kapitalining haqiqiy iqtisodiy qiymati oshadi.

Umuman olganda, inson kapitalini samarali boshqarish korxonalarning mavjud xodimlar salohiyatidan yuqori darajada foydalanish, yangi kompetensiyalarni shakllantirish va kelajakdagi iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni shakllantirish O'zbekistonning raqamli va innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonining muhim shartlaridan biri sifatida qaralishi lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. — London : W. Strahan and T. Cadell, 1776.
2. Schultz T. W. Investment in Human Capital // *The American Economic Review*. — 1961. — Vol. 51, No. 1. — P. 1–17.
3. Becker G. S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. — New York : Columbia University Press, 1964.
4. Mincer J. *Schooling, Experience, and Earnings*. — New York : National Bureau of Economic Research, 1974.
5. Bourdieu P. The Forms of Capital // *Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education* / ed. by J. G. Richardson. — New York : Greenwood Press, 1986. — P. 241–258.
6. World Bank. *The Human Capital Project*. — Washington, DC : World Bank, 2018.
7. World Bank. *The Human Capital Index 2020 Update: Human Capital in the Time of COVID-19*. — Washington, DC : World Bank, 2020.
8. World Bank. *The Human Capital Project: Key Reports*. — Washington, DC : World Bank, 2020.
9. OECD. *OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots*. — Paris : OECD Publishing, 2021. — DOI: 10.1787/589b283f-en.
10. International Labour Organization. *Skills for Digital Transformation*. — Geneva : International Labour Organization, 2024.
11. OECD. *Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan*. — Paris : OECD Publishing, 2023. — DOI: 10.1787/6c54f447-en.
12. World Economic Forum. *The Future of Jobs Report 2025*. — Geneva : World Economic Forum, 2025.
13. OECD. *OECD Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Green and Digital Transition*. — Paris : OECD Publishing, 2023.
14. Gatti R. V., Corral P., Dehnen N., D'Souza R., Mejalenko J., Pennings S. *The Human Capital Index 2020 Update: Human Capital in the Time of COVID-19*. — Washington, DC : World Bank, 2020.
15. World Bank. *Human Capital Project: Key Reports*. — Washington, DC : World Bank, 2020.
16. International Labour Organization. *Skills and Lifelong Learning: Skills for Digital Transformation*. — Geneva : International Labour Organization, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>